# KATAKOSMESIS ALOGIZM TAMOYILIGA ASOSLANGAN STILISTIK VOSITA SIFATIDA

***Samatova Zulxumor Qudratilla qizi***
*zulhumorqosimova@gmail.com*

***Annotatsiya:*** *Ushbu tezisda katakosmesis stilistik vositasi alogizm tamoyili bilan bog‘liq holda tahlil etiladi. Unsurlarni muhimlik darajasiga ko‘ra pasayish tartibida sanash orqali yaratilgan badiiy effektlar, xususan ironik ohang, semantik kontrast va estetik zo‘riqish yoritiladi. Asarda Uilliam Shekispir, Erkin Vohidov kabi mualliflar asarlaridan va mediadan misollar keltirilib, katakosmesisning ingliz va o‘zbek adabiyotidagi funksional roli ko‘rsatiladi.*

***Kalit so‘zlar****: alogizm, katakosmesis, stilistika, stilistik vosita.*

Zamonaviy stilistika va ritorikaning asosiy tadqiqot yo‘nalishlaridan biri bu – badiiy nutqdagi semantik nomuvofiqlik, noan’anaviylik va ifodaning mantiqiy qonunlardan og‘ish orqali hosil bo‘ladigan uslubiy vositalarni aniqlashdir. Bunday hodisalarning mohiyatini tushunish va tasniflash uchun **alogizm** tushunchasi muhim nazariy tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Yunon tilidan olingan ushbu atama *“mantiqiy izchillikka zidlik”*, *“aqlga to‘g‘ri kelmaslik”* degan ma’nolarni anglatib, ritorik va badiiy matnlarda atayin yaratilgan mantiqiy ziddiyatni ifodalaydi. V.P. Moskvin mantiqiy nomuvofiqlik qonunining ataylab buzilishi asosida tuzilgan figuralar qatoriga *paralipsis, proslepsis, katafasis, apofaziya, apodozis, gisteroproteron, katakosmesisni* kiritadi. [1.285]

Alogizmga asoslangan stilistik vositalar nafaqat ekspressivlik va ironiyani kuchaytiradi, balki nutqning kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, katakosmesis (ahamiyati kamayib boruvchi tartibda fikrni bayon qilish)adabiy asarlarda, siyosiy nutqlarda, hatto reklama matnlarida ham keng qo‘llanadi. Ushbu maqolada aynan shu uslubiy figuralarning alogizm tamoyiliga asoslangan ishlash mexanizmi, ularning semantik va pragmatik funksiyalari tahlil qilinadi.

**Katakosmesis (Catacosmesis)** — bu yunoncha so‘z bo‘lib, “tartib bilan joylashtirish” degan ma’noni anglatadi.Ritorikada bu stilistik vosita bo‘lib, unda so‘zlar yoki iboralar pasayuvchi tartibda joylashtiriladi – ya’ni ular ahamiyati**,** obro‘si yoki vaqti bo‘yicha kamayib boradi. Bu kamayish keskin yoki sekinlik bilan amalga oshishi mumkin. [2.123]

**I die, I faint, I fail.** *(Men o‘lyapman, hushimdan ketdim, yiqildim.)* (Persi Bisshi Shelley, *The Indian Serenade)* Bu yerda “die” (o‘lish) – eng kuchli va jiddiy, “faint” (hushdan ketish) – sal yengilroq,va “fail” (yiqilish, muvaffaqiyatsizlik) – eng zaif holat sifatida kamayish tartibida joylashtirilgan. “For God, for country, and for Yale.” *(Xudo uchun, Vatan uchun va Yale uchun.) (*Yale universiteti shiori) Bu yerda “God” (Xudo), “country” (Vatan) va “Yale” (Universitet) so‘zlari eng muhimdan eng kam ahamiyatligacha ketma-ketlikda joylashtirilgan. (Yale — oxirgi va eng kichik ahamiyatga ega deb ko‘rsatilgan).

**Be certain what you do, sir, lest your justice**

**Prove violence, in the which three great ones suffer,**

*Yourself, your queen, your son*. [3. 40]

Uilyam Shekspirning “The Winter’s Tale” (“Qish ertagi”) nomli pyesasida keltirilgan ushbu jumlalar Antigonus ismli qahramon (Act 2, Scene 1) da qirol Leontesga aytadi. Antigonus qirol Leontesni ogohlantirib, adolat nomi bilan qilinayotgan harakatlar zo‘ravonlikka aylanib ketmasligini, bu esa uch buyuk shaxs – o‘zi, malikasi Hermione va o‘g‘li Mamilliusga zarar yetkazishini ta’kidlaydi. Ushbu misolda ham katokosmesis ushbu leksik birliklar orqali ifodalangan ya’ni Yourself → your queen → your son. Bu gapda subyektlar muhimlik tartibida teskari, ya’ni eng obro‘li (yourself)dan boshlab, eng kam darajali (your son)gacha kamayib boradi.Siz o‘zingiz (hokimiyat, mualliflik, javobgarlik timsoli),qirolicha (marhamatli hukmronlikning timsoli),o‘g‘il (kelajak, davomchi) – eng oxirida turibdi.Bu pasayuvchi tartib katokosmesisning klassik namunasi bo‘lib, ogohlantiruvchi va dramatik ta’sir kuchini oshiradi. Shakespeare bu yerda adolat noto‘g‘ri talqin qilinsa, bu zo‘ravonlikka olib keladi, degan fikrni ilgari surmoqda. Bu zo‘ravonlikdan eng muhim shaxslar aziyat chekadi, deb ogohlantiradi.“...three great ones suffer…” – bu ifoda bilan ogohlantiruvchi dramatik fon yaratiladi. Ushbu misolda ishlatigan katakosmesis funksional jihatdan tartibning pasayishi orqali dramatizmni kuchaytiradi, emotsional jihatdan eng oxirgi subyekt “your son” bo‘lishi natijasida o‘quvchida ruhiy ta’sir kuchayadi, go‘yoki nohaqlik qilinsa eng yaqin insonlar zarar ko‘rishi yoritiladi.

*I thought I was a king. Then I thought I was a prince. Now I know I am a homeless man. I live on the street. I live in an alley by a restaurant. I rummage for food three times a day. There’s always something to eat, but it isn’t very good. I long for the days when I thought I was a king, or even a prince. I had a family. Now, I sleep under a tarp on the pavement*.[4]

Katakosmesis bu yerda “king, prince, homeless man” leksik birliklar bilan aniq qo‘llanilgan natijada ziddiyat kuchaytirilgan “noble” ( baland maqomdagi) va “cold pavement” (eng past va og‘ir hayotiy holat) yoritilgan.Bir vaqtlar o‘zini qirol deb bilgan kishi endi axlatdan ovqat izlashi ham katokosmesis zamirida ironiya va alogiz borligini sezdirib turibdi.“I miss the illusions of royalty” iborasi avvalgi xayolparastlik va hozirgi haqiqat orasidagi fojiali tafovutni ifodalaydi. O‘zbek adabiyotimning yetik namoyondalaridan biri Erkin Vohidovning “O‘zbegim” she’rida katakosmesis uslubiy vositasini uchratish mumkin, misol uchun:

*“Al Beruniy, Al Xorazmiy, Al Forob avlodidan,*

*Asli nasli balki O‘zluq,*

*Balki Tarxon, o‘zbegim.”[5. 25]*

Bu yerda shoir avval ilm-fan sohasida mashhur bo‘lgan shaxslarAl Beruniy, Al Xorazmiy, Al Forobni tilga olib, so‘ngra nasab va kelib chiqishga oid unvonlarni (O‘zluq, Tarxon) sanab o‘tadi. Bu sanash tartibi muhimlik darajasiga ko‘ra pasayish tartibida bo‘lib, katakosmesis uslubiga misol bo‘la oladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Anticlimax // Encyclopædia Britannica. – 11th ed. – Vol. 2. – Cambridge: Cambridge University Press, 1911. – P. 123.
2. Catacosmesis [Electronic resource]. – Access mode: https://dailytrope.com/2021/11/06/catacosmesis-10/ (accessed: 22.06.2025).
3. Shakespeare W. The Winter's Tale / W. Shakespeare. Edited by J. P. – London: William Heinemann, 1912.
4. Vohidov E. O‘zbegim. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.
5. Москвин В. П. Стилистика русского языка : теоретический курс. – 4-е изд., перераб. и доп. – Ростов н/Д: Феникс, 2006. – 630 с. – С. 285–286.